



Nasiba SHODIYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail:nasibashodiyeva18@gmail.com

DSc,dotsent M.Islomova taqrizi asosida

IJTIMOY-MADANIY YONDASHUV ASOSIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Mazkur maqolada ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning muloqot jarayonida samarali ishtirok etishi, turli ijtimoiy va madaniy muhitlarda erkin fikr almasha olishi muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Shu sababli kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda tilni nafaqat grammatik tizim sifatida, balki ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda kommunikativ kompetensiya tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda ijtimoiy-madaniy omillarning kommunikativ faoliyatga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, o'quv jarayonida autentik materiallar, dialogik muloqot, muammoli vaziyatlar va interfaol metodlardan foydalanish orqali kommunikativ kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari hamda samarali kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy-madaniy yondashuv, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ faoliyat, til o'qitish metodikasi, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА ОСНОВЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы формирования коммуникативной компетенции на основе социокультурного подхода. В современной системе образования способность учащихся эффективно участвовать в процессе общения и свободно взаимодействовать в различных социальных и культурных условиях рассматривается как важная педагогическая задача. В связи с этим развитие коммуникативной компетенции предполагает изучение языка не только как грамматической системы, но и как социально-культурного явления. В исследовании раскрывается сущность понятия коммуникативной компетенции, ее структурные компоненты, а также влияние социокультурных факторов на коммуникативную деятельность. Кроме того, обоснована эффективность использования аутентичных материалов, диалогического общения, проблемных ситуаций и интерактивных методов обучения в формировании коммуникативной компетенции. Результаты исследования направлены на развитие у учащихся навыков межкультурного общения, социальной адаптации и эффективной коммуникативной деятельности.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, социокультурный подход, межкультурная коммуникация, коммуникативная деятельность, методика обучения языку, компетентностный подход, интерактивные методы.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE BASED ON A SOCIOCULTURAL APPROACH

Annotation

This article examines the theoretical foundations of developing communicative competence based on a sociocultural approach. In modern education, the ability of students to participate effectively in communication and interact freely in diverse social and cultural contexts is considered an important pedagogical objective. Therefore, the development of communicative competence requires studying language not only as a grammatical system but also as a social and cultural phenomenon. The study analyzes the essence of communicative competence, its structural components, and the influence of sociocultural factors on communicative activity. Furthermore, the effectiveness of using authentic materials, dialogic communication, problem-based situations, and interactive teaching methods in developing communicative competence is substantiated. The findings of the research contribute to enhancing students' intercultural communication skills, social adaptation, and effective communicative interaction in the educational process.

Keywords: communicative competence, sociocultural approach, intercultural communication, communicative activity, language teaching methodology, competency-based approach, interactive methods.

Kirish. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda madaniyatlararo aloqalarning kengayishi zamonaviy ta'lim tizimida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalasini dolzarb pedagogik muammolardan biriga aylantirdi. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning ijtimoiy muhitda samarali

muloqot qilish, turli madaniyat vakillari bilan o'zaro tushunish va hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Shu nuqtai nazardan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ijtimoiy-madaniy yondashuv muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv ta'lim jarayonini shaxsning jamiyat va madaniyat bilan o'zaro aloqasi orqali

rivojlanishini ta'minlaydigan tizim sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki ma'lum bir jamiyatning madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarini, ijtimoiy tajribasi va dunyoqarashini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham til o'qitish jarayonida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish madaniy kontekstni hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur.

Pedagogika va lingvodidaktika sohasidagi ko'plab tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya tushunchasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasi keng yoritilgan. Xususan, kommunikativ kompetensiya shaxsning nutqiy faoliyatini samarali amalga oshirish, til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish hamda ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda mulqot qilish qobiliyatini ifodalaydi. Bu jarayonda til bilimlari bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy bilimlar, kommunikativ strategiyalar hamda madaniyatlararo mulqot ko'nikmalari muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan o'quv jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, dialogik mulqot, autentik materiallardan foydalanish samarali natijalar beradi. Bunday metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini asoslab berish hamda madaniyatlararo mulqot olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bois mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonning pedagogik va metodik jihatlarini ilmiy nuqtai nazardan yoritishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va madaniy moslashuvini ta'minlash hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalasi pedagogika, lingvodidaktika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuv hamda ijtimoiy-madaniy omillarning o'zini ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiya nafaqat til birliklarini bilish, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri va samarali qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilk bor amerikalik olim D. Hymes tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u til bilimlarini amaliy kommunikativ faoliyat bilan bog'lash zarurligini ta'kidlagan. Hymesning fikriga ko'ra, shaxsning tilni bilishi faqat grammatik bilimlar bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy vaziyat, kommunikativ maqsad va nutqiy madaniyatni ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ushbu g'oya keyinchalik kommunikativ til o'qitish metodikasining shakllanishiga asos bo'ldi.

Keyinchalik M. Canale va M. Swain kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqib, uni grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar majmui sifatida talqin etdilar. Ularning tadqiqotlarida til o'rganish jarayonida nafaqat grammatik bilimlar, balki ijtimoiy-madaniy kontekstni tushunish va nutqiy strategiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan.

Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishida ijtimoiy-madaniy omillarning muhimligini rus psixologi L. S. Vygotskiy ham o'z tadqiqotlarida asoslab bergan. Uning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, inson

tafakkuri va nutqi ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Vygotskiy ta'lim jarayonida mulqot, hamkorlik va ijtimoiy tajribaning o'zini muhim ekanini ta'kidlab, bilimlarning o'zlashtirilishi ijtimoiy faoliyat jarayonida amalga oshirishini ko'rsatib bergan.

Chet tilini o'qitish metodikasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari S. Savignon, H. Widdowson, M. Byram kabi olimlarning ilmiy ishlarida ham keng yoritilgan. Xususan, M. Byram kommunikativ kompetensiyaning tarkibida madaniyatlararo kompetensiya alohida o'rin egallashini ta'kidlab, til o'rganish jarayonida madaniyatlararo mulqot ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini asoslab bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba-sinov metodidan foydalanildi. Tajriba ishlari O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida tashkil etilib, unda filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan 38 nafar talaba ishtirok etdi. Tadqiqot jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiya darajasini aniqlash, ijtimoiy-madaniy yondashuvga asoslangan ta'lim metodlarining samaradorligini baholash hamda o'quv jarayonida kommunikativ faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash maqsad qilib qo'yildi. Tajriba davomida kuzatish, suhbat, anketa so'rovi hamda amaliy topshiriqlarni bajarish kabi ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llanildi.

Dastlab tadqiqotning diagnostik bosqichida talabalarning kommunikativ kompetensiya darajasi o'rganildi. Bu jarayonda talabalarning nutqiy faolligi, mulqot jarayonida o'z fikrini aniq va ravon ifoda eta olish qobiliyati, madaniyatlararo mulqot ko'nikmalari hamda kommunikativ vaziyatlarda mos strategiyalardan foydalanish darajasi tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyasi boshlang'ich, o'rta va yuqori darajalarga ajratildi.

Tajriba-sinov jarayonining shakllantiruvchi bosqichida ijtimoiy-madaniy yondashuvga asoslangan o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. Mashg'ulotlarda autentik matnlar, dialogik mulqot, muammoli vaziyatlar, rol o'yinlari hamda interfaol metodlardan foydalanildi. Bu metodlar talabalarning nutqiy faolligini oshirish, mulqot jarayonida erkin fikr almashish hamda turli madaniy kontekstlarni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari tahlil qilinib, ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali ekani aniqlandi. Olingan natijalar ushbu yondashuvning ta'lim jarayoniga joriy etilishi talabalarning mulqot madaniyatini rivojlantirish hamda ularning madaniyatlararo kommunikativ faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida olingan ma'lumotlar talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy yondashuvning samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotda O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 38 nafar talabalar ishtirok etib, ularning kommunikativ kompetensiya darajasi tajriba boshlanishidan oldin va tajriba yakunida qiyosiy tahlil qilindi.

Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra, talabalarning kommunikativ kompetensiya darajalari uch guruhga – boshlang'ich, o'rta va yuqori darajalarga ajratildi. Tadqiqot boshida ko'plab talabalarda kommunikativ faoliyat jarayonida fikrni erkin ifodalash, madaniyatlararo mulqot jarayonida mos strategiyalarni tanlash hamda nutqiy faollikni namoyon etish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagani kuzatildi.

Shakllantiruvchi bosqichda ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda dialogik muloqot, rol o'yinlari, autentik matnlar bilan ishlash, muammoli vaziyatlar hamda guruhli muhokama metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar talabalarining nutqiy faolligini oshirish, madaniyatlararo muloqot jarayonida erkin fikr

almashish hamda ijtimoiy kontekstni to'g'ri anglash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Tajriba yakunida o'tkazilgan qayta diagnostika natijalari talabalarining kommunikativ kompetensiya darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatdi. Quyidagi jadvalda tajriba boshidagi va yakunidagi natijalar keltirilgan.

1-jadval

Talabalarining kommunikativ kompetensiya darajalarining tajriba boshidagi va yakunidagi ko'rsatkichlari (38 nafar talaba)

Darajalar	Tajriba boshida (soni)	Tajriba boshida (%)	Tajriba yakunida (soni)	Tajriba yakunida (%)
Boshlang'ich	14	36,8 %	6	15,8 %
O'rta	16	42,1 %	18	47,4 %
Yuqori	8	21,1 %	14	36,8 %
Jami	38	100 %	38	100 %

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tajriba yakunida boshlang'ich darajadagi talabalar soni 36,8 % dan 15,8 % gacha kamaydi, yuqori darajadagi talabalar ulushi esa 21,1 % dan 36,8 % gacha oshdi. Bu esa ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarining kommunikativ faoliyatini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, kuzatish va suhbat natijalari ham talabalarining nutqiy faolligi oshganini, ular muloqot jarayonida o'z fikrlarini erkin va asosli bayon eta boshlaganini hamda madaniyatlararo muloqot jarayonida ijtimoiy kontekstni hisobga olish ko'nikmalari shakllanganini ko'rsatdi.

Umuman olganda, o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil bo'lib xizmat qilishini tasdiqladi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarining muloqot madaniyatini shakllantirish hamda ularning madaniyatlararo kommunikativ faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish nafaqat til bilimlarini o'zlashtirish, balki o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy muhitda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili kommunikativ kompetensiya tushunchasi tilshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlari kesishgan nuqtada shakllangan murakkab pedagogik

kategoriya ekanligini ko'rsatdi. Ushbu kompetensiya grammatik bilimlar bilan bir qatorda sotsiolingvistik, diskursiv hamda strategik ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy yondashuv esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida tilni madaniy kontekst bilan birgalikda o'rganish zarurligini asoslab beradi.

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari ham ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini tasdiqladi. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 38 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan tajriba natijalari tahliliga ko'ra, talabalarining muloqot jarayonidagi faolligi oshgani, fikrni aniq va ravon ifodalash hamda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarining rivojlangani kuzatildi. Ayniqsa, autentik materiallar, dialogik muloqot, muammoli vaziyatlar va interfaol metodlardan foydalanish kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qilgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, shuni ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularning mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni yanada takomillashtirish hamda ularni amaliyotga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Hymes D. On Communicative Competence // Pride J., Holmes J. Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269–293.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1. – No. 1. – P. 1–47.
3. Savignon S. J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. – New York: McGraw-Hill, 1983. – 322 p.
4. Widdowson H. G. Teaching Language as Communication. – Oxford: Oxford University Press, 1978. – 168 p.
5. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.
6. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
7. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007. – 410 p.
8. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.
9. Byram M., Holmes P., Savvides N. Intercultural Communicative Competence in Foreign Language Education. – Bristol: Multilingual Matters, 2013. – 312 p.